

Date: 21st January-2026

OILANING SHAXS TARBIYASIDAGI O'RNI VA MILLIY QADRIYATLARNING
TARBIYAVIY IMKONIYATLARI

Yangiboyeva Madina Oybek qizi

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv
va texnologiyalar universiteti magistri

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaning shaxs tarbiyasidagi yetakchi o'rni hamda milliy qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Oilaning birlamchi ijtimoiy muhit sifatida shaxsning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan shakllanishiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarning tarbiya jarayonidagi pedagogik ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan oilaviy tarbiyaning samarali yo'llari ko'rsatib o'tilgan. **Kalit so'zlar:** oila tarbiyasi, shaxs tarbiyasi, milliy qadriyatlar, tarbiyaviy muhit, oilaning pedagogik roli, ma'naviy-axloqiy tarbiya.

Аннотация. В статье анализируется роль семьи в воспитании личности и воспитательные возможности национальных ценностей. Рассматривается значение семьи как первичной социальной среды в формировании духовно-нравственных, социальных и культурных качеств личности. Обоснована педагогическая значимость национальных традиций, обычаев и ценностей в процессе воспитания. Особое внимание уделено гармонии национальных и общечеловеческих ценностей в семейном воспитании.

Ключевые слова. семейное воспитание, воспитание личности, национальные ценности, воспитательная среда, педагогическая роль семьи, духовно-нравственное воспитание.

Abstract. This article analyzes the role of the family in personality development and the educational potential of national values. The study highlights the family as a primary social environment influencing the moral, social, and cultural formation of the individual. The pedagogical significance of national traditions, customs, and values in the upbringing process is substantiated. Special attention is given to the harmony between national and universal human values in family education.

Keywords: family upbringing, personality development, national values, educational environment, pedagogical role of the family, moral education

Jamiyat taraqqiyotida barkamol shaxsni shakllantirish masalasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Ushbu jarayonda oila eng muhim va birlamchi ijtimoiy institut sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki farzandning dastlabki ijtimoiy tajribasi, axloqiy qarashlari, xulq-atvori va dunyoqarashi aynan oilada shakllanadi. Shuning uchun ham oilada farzand tarbiyasining mazmuni, mohiyati va funksiyalarini ilmiy jihatdan o'rganish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.



Date: 21st January-2026

Farzand tarbiyasi inson hayotidagi eng mas'uliyatli va muqaddas vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda oila muhiti hal qiluvchi o'rin tutadi. Oilada farzand tarbiyasi nafaqat shaxs rivojlanishi, balki jamiyatning ma'naviy va axloqiy barqarorligi uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, oiladagi tarbiya masalasiga pedagogik nuqtai nazardan yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila - bu farzandning jismoniy, ma'naviy, axloqiy va psixologik rivojlanishini ta'minlovchi asosiy muhitdir. Farzand uchun oila nafaqat yashash makoni, balki tarbiya, mehr-muhabbat, muloqot va ijtimoiylashuv maktabidir. Oiladagi tarbiyaviy ta'sir bolaning shaxs sifatida shakllanishida uzluksiz va tizimli xususiyatga ega bo'lib, maktab va jamiyat tarbiyasi uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Oilada berilgan tarbiya bolaning keyingi hayot yo'lini belgilab beruvchi muhim omil bo'lib, undagi muhit, ota-onaning shaxsiy namunalari, munosabatlar madaniyati farzand ongiga bevosita singadi.

Pedagogik adabiyotlarda Oila - jamiyat hayotining kichik bir debochasi bo'lib, har tomonlama sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ma'sul bo'lgan g'oyat muhim tarbiya o'chog'idir. O'zbek oilasi a'zolarining barchasini savodxon, ma'lumotli deb atasak, xato qilmagan bo'lamiz, ana shu imkoniyatlar ta'sirida o'g'il va qizlar bilimli, fikr-mulohazali, topqir, ishbilarmon, aql-zakovati bo'lib voyaga etmoqdalar. Oiladagi bola tarbiyasi ikkiyoqlama ahamiyat kasb etadi, ota-onalar farzandlariga ahloq-odob, ruhiyat va ma'naviyatga oid bilimlardan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasliklari, balki o'zlari ham tarbiyaning o'ziga xos sir-sinoatlari, hususiyatlari, uning mazmun-mohiyati va ma'nosiga doir eng yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishlari kerak bo'ladi deyiladi[8].

Oila – bolaning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi ilk ijtimoiy muhitdir. Unda farzand nafaqat hayotga oid birinchi bilimlarni, balki insonlar bilan munosabat, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtiradi. Bu jarayonda bolaning taassurotlari, tushunchalari va xulq-atvori shakllanadi. Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan, bola hayotning dastlabki besh yilida shaxsiyat sifatida shakllanishining asosiy qismiga yetadi. Bu davrdagi tarbiya sifati kelgusida uning ta'limdagi va hayotdagi muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar bolani jismonan, aqlan va ma'nan barkamol etib tarbiyalash uchun ma'lum vazifalarni amalga oshirishlari zarur:



Date: 21st January-2026



1-rasm. Oilada farzand tarbiyasida ota-onalarning asosiy vazifalari

Tarbiya - bu shaxsda jismoniy, ruhiy, axloqiy va ma'naviy sifatlar, odob-axloq, hunar va jamiyatda yashash uchun zarur bo'lgan xislatlarni shakllantirishga qaratilgan maqsaddan xabardor amaliy pedagogik jarayon bo'lib, oila, maktab, jamoatchilik va madaniyat orqali amalga oshiriladi, insonni barkamol qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda zamonaviy oilalarda tarbiya fenomeni va unga bo'lgan munosabat kundan kunga o'zgarib bormoqda. Farzand tarbiyasining oila bilan bog'liq pedagogik usullari pedagogika fanida asoslangan turli tarbiya usullari mavjud bo'lib, pedagogik nuqtai nazardan oladigan bo'lsak oilada qo'llanadigan asosiy tarbiya usullariga quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- Tushuntirish va nasihat;
- Shaxsiy namuna ko'rsatish;
- Jazolash;


- Muhokama va muloqot orqali o'rgatish va boshqalar. Keltirib o'tilgan usullardan qaysi biri qo'llanishidan qat'i nazar, ular bolaning yoshi, hissiy holati va shaxsiy xususiyatlariga moslashtirilishi o'ta muhim sanaladi. Albatta oilada tarbiya jarayonini axloqiy va ma'naviy qadriyatlaridan ayro tasavvur etib bo'lmaydi. Oilaviy tarbiya usullaridan yana biri ham aynan axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish hisoblanadi. Oila bolaga rostgo'ylik, adolat, bag'rikenglik, mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlarni singdirish tarbiyaning eng asosiy ustunlaridan hisoblanadi. Bu qadriyatlar oilada nasihat emas, balki amaldagi harakatlar orqali samarali o'rgatiladi. Shuningdek,

Date: 21st January-2026

milliy va diniy qadriyatlarni ham oila bolaga singdirishi kerak. Masalan, mehmonga hurmat, kattalarga izzat, kichiklarga g'amxo'rlik - bular barchasi hayotiy oila maktabining tayanchi sanaladi.

Umumiy jihatdan tarbiya ko'p qirrali murakkab jarayon bo'lib, oilada farzand tarbiyasining mazmuni bolaning har tomonlama kamol topishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik va psixologik ta'sirlar majmuasidan iborat. Bu jarayon bir nechta asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi (2-rasm). Ushbu ko'p ukladli jarayonlarning hech birini boshqasidan alohida tasavvur etish mumkin emas.

Oilaviy tarbiyaning usullaridan yana biri zamonaviy tahdidlar va ota-onaning nazoratidir. Hozirgi davrda farzand tarbiyasidagi eng katta muammolardan biri - internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siridir. Ota-onalar bolalarning axborot muhitini nazorat qilib, ularni salbiy ta'sirlardan muhofaza qilishi kerak. Buning uchun oilada onlayn faoliyatni doimiy nazoart qilish lozim. Oilaviy tarbiyada pedagogik bilim va malakaning ahamiyati ham juda katta sanaladi. Ota-ona bola tarbiyasida muvaffaqiyat qozonishi uchun ma'lum pedagogik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Shunday bilimlar bolalar psixologiyasi asoslarini bilish, bola yoshiga mos tarbiya usullaridan xabardor bo'lish, konfliktlarini hal etish usullarini bilish, muloqot madaniyatidan boxabar bo'lish kabilar hisoblanadi.



1.2.2-rasm. Tarbiya jarayonining asosiy turlari



Oilaviy tarbiya tarbiya kompleksining eng muhim bo'g'ini bo'lib, uning muhimligi qadimdan muhimligi bilan ajralib turadi, shu jihatdan oilada farzand tarbiyasi bir qator muhim funksiyalarni bajaradi:

1. **Tarbiyaviy funksiya** – farzandda ijtimoiy me'yorlar, axloqiy qadriyatlar va xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantiradi;
2. **Ijtimoiylashtirish funksiyasi** – bolaning jamiyatga moslashuvi, muloqot madaniyati va ijtimoiy rollarni o'zlashtirishini ta'minlaydi;
3. **Emotsional-psixologik funksiya** – mehr-muhabbat, ishonch va xavfsizlik muhitini yaratib, farzandning ruhiy barqarorligini ta'minlaydi;
4. **Madaniy-meros funksiyasi** – milliy an'analar, urf-odatlar va qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazadi;
5. **Rivojlantiruvchi funksiya** – farzandning qobiliyat va iste'dodlarini aniqlash hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oilada farzand tarbiyasi nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy mas'uliyat hamdir. Ota-onaning farzandga ko'rsatgan munosabati, uning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pedagogik bilim, mehr, sabr va doimiy muloqot orqali oila farzandni barkamol inson qilib tarbiyalaydi. Har bir oila farzandining ma'naviy rivojlanishiga jiddiy yondashsa, jamiyatda madaniyatli, ma'rifatli va mas'uliyatli avlod shakllanadi. Oila farzand tarbiyasining eng muhim va hal qiluvchi muhitidir. Undagi pedagogik-psixologik ta'sirlar bolaning shaxs sifatida shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Oilaviy tarbiyaning mazmuni va funksiyalarini chuqur anglash, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish zamonaviy jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi.

Oilada farzand tarbiyasining mazmuni bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik va psixologik ta'sirlar majmuasidan iborat. U quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi: axloqiy, ma'naviy, aqliy, mehnat, jismoniy va estetik tarbiya.

Farzand tarbiyasining mohiyati bolaning shaxsiy qobiliyatlarini ochish, unda mustaqil fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat va o'zini anglash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayon oiladagi mehr-muhabbat, o'zaro hurmat va ishonch muhitida samarali amalga oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Юлдашев, И. (2010). Оила, маҳалла, мактаб ҳамкорлигида тарбиявий ишлар самарадорлигини ошириш. Известия ВУЗов (Кыргызстан), (6), 112-113.
2. Юлдашев, И. А. (2020). Сотрудничество махалли и кенгаша схода сельских граждан, школы, семьи в процессе формирования у подростков социальной активности. Редакційна колегія: АА Сбруєва—доктор педагогічних наук, професор (відповідальний редактор), 139.

Date: 21st January-2026

3. Axmedova M. "Oila tarbiyasi va uning pedagogik xususiyatlari" Research Focus International Scientific journal, 2023 y.
4. Axmedbekova M. "Oila tarbiyasi va uning pedagogik xususiyatlari." Research Focus International Scientific Journal, 2023 y.
5. Каримова, Г., Бахординова, Ф., & Соибжонова, С. (2021). Оила социологиясида оиладаги ижтимоий мухитнинг ўрганилиши. Интернаука, (10-3), 44- 45.
6. Арзиматова, И. М. (2020). Искусство как своеобразное средство воспитания. Вестник педагогики: наука и практика, (51), 116-117.
7. Арзиматова, И. М. (2019). Процесс глобализации и формирование чувства патриотизма у молодёжи. In перспективные области развития науки и технологий (pp. 20-22).
8. Арзиматова, И., & Муминов, Ж. (2019). Взаимосвязь экологического и эстетического образования. In Актуальные вопросы развития современной науки и образования (pp. 234-236).
9. Ismoilova Sh.V. "Oila va uning turlari, tasnifining psixologik xususiyatlari" International scientific and practical conference "Solutions to current issues in psychological science based on international experiments" may 14-15, 2025. 258-251-b. (<https://ilmiyanjumanlar.uz>)
10. Karimov F. "Oila va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi", "Pedagogika va psixologiya" jurnali. 2016 yil.
11. Xolmurodov A. "Pedagogik mahorat va oila tarbiyasi", "Fan" nashriyoti, Toshkent, 2017 yil.

